

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ODAM SAVDOSIGA
QARSHI KURASHISH FAOLIYATI**

Omonov Hamid Bahriddin o'g'li
Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi
311-guruh kursanti

Annatsiya: Ushbu maqola orqali bugungi kunda global muammolardan biri bo'lgan odam savdosi jinoyati butun jahonni oldidagi eng kata xavfga aylanib bormoqda. Ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi kurashish har birimizni asosiy vaziyfamiz sifatida belgilanmoqda.

Аннотация: Благодаря данной статье преступление торговли людьми, являющееся сегодня одной из глобальных проблем, становится самой большой угрозой, стоящей перед всем миром. Борьба с этим видом преступности определена как главная задача каждого из нас.

Annotation: Through this article, the crime of human trafficking, which is one of the global problems today, is becoming the biggest threat facing the whole world. The fight against this type of crime is defined as the main task of each of us.

*30 iyul — Butun jahon odam savdosiga
qarshi kurashish kuni*

Bugungi kunda asr muammosiga aylangan odam savdosiga qarshi kurash nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi inson huquq va erkinlarini ta'minlashdagi asosiy masalalardan biridir. Ushbu jinoyatga qarshi kurashish nafaqat har bir huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlari, bundan tashqari har bir insonning asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Achinarlisi, ushbu illatni oldini olishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlari olib borilishiga qaramay, millionlab insonlar odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Mazkur jinoyatning rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri fuqarolarning xorijga borish va mehnat bundan tashqari moddiy hamda ijtimoiy ta'minotning yo'qligi ham sabab bo'moqda. Bundan tashqari odamlarni huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati rivijlanmaganligi yoki tartib-qoidalari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lmasligi hamda firibgarlar tuzog'iga ilinib qolishidadir.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ham odam savdosini oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yilda qabul qilingan "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi hamda 2008 yilning

17 aprelida “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Bundan tashqari 2021-yil 19-fevralda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur Qonunga ko‘ra, **odam savdosi** — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste‘mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishni anglatadi.

Odam savdosidan jabirlangan shaxs- odam savdosidan, bunday harakatga rozilik berganligi-bermaganligidan va jinoyat protsessida ishtirok etganligi-etmaganligidan qat’i nazar, jabrlangan jismoniy shaxs;

odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya qilish — jismoniy shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan, ularga nisbatan odam savdosi sifatida malakalanadigan xatti-harakatlar sodir etilganligi to‘g‘risida yoki sodir etish niyati haqida ma’lumotlar olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

odam savdosiga qarshi kurashish — odam savdosining oldini olishga, uni aniqlashga, unga chek qo‘yishga, uning oqibatlarini kamaytirishga, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga doir faoliyat;

odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs — dastlabki identifikatsiya qilish natijasida odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs sifatida tan olingan jismoniy shaxs;

odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxs — mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog‘liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy shaxs, shuningdek o‘z harakatlari bilan odam savdosiga ko‘maklashayotgan, xuddi shuningdek garchi o‘z mansab vakolatlariga ko‘ra to‘sqinlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo‘lsa-da, odam savdosiga to‘sqinlik qilmayotgan va qarshi kurashmayotgan mansabdor shaxs.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 iyuldagi “Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi etib qayta tashkil qilindi.

Milliy komissiyaning sohadagi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

davlat organlari va hududiy organlarning, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati samaradorligini, yaqin

hamkorligi va bahamjihat ishlashlarini ta'minlash maqsadida ularning odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish maqsadida odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida davlat dasturlari hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkillashtirish, shuningdek, ularning ijrosini nazorat qilish;

odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish, baholash, monitoring qilish va samaradorligini oshirish, ushbu sohadagi jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, oldini olish va ularga chek qo'yish amaliyotini o'rganish;

odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida samarali xalqaro hamkorlik va bahamjihat harakatni tashkil etish, shuningdek, mazkur sohada axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ma'ruzalar tayyorlash.

Aytish lozimki, bugungi kunga kelib odam savdosining avj olishiga, ya'ni insonni qandaydir bir buyum sifatida, ta'bir joiz bo'lsa insonni oldi-sotdining ob'ekti sifatida foydalanilishi, ularning huquq va erkinliklarining poymol etilishiga nimalar sabab bo'lmoqda?

— odam savdosi kabi noqonuniy faoliyat turi bir yoki bir necha a'zoldan iborat guruhlarining serdaromad manbasiga aylanib borayotgani, ya'ni ularning hech qanday og'ir va mashaqqatli mehnatlarsiz mo'may daromad olishga urinayotganligi;

— odam savdosining qurboniga aylanayotgan shaxslarning soddaligi, o'zining, yaqinlarining taqdiriga va kelajagiga befarqligi, loqaydligida. Ya'ni eng oliy ne'mat hisoblanmish erkin hayot tushunchasiga nisbatan yengil va beparvolik bilan qarashlari oqibatida ushbu odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchilarning o'ljasiga, aniqrog'i ularning oson daromad manbaiga aylanib qolmoqdalar;

— odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchi shaxslar o'zlarining tanishlari, yaqin qarindoshlariga nisbatan, ya'ni ularning ishonchiga kirib olib, ularning odam savdosini qurboniga aylanib qolishiga sababchi bo'layotganligida;

— odam savdosining qurboniga aylanayotgan shaxslarning or-nomus qilib, ko'rgan xo'rliklari, ularga nisbatan ishlatilgan turli xildagi jismoniy yoki ruxiy tazyiqlar haqida yohud o'zining noqonuniy ravishda chegarani buzib chiqib, chet davlatda hech qanday davlat ro'yxatidan o'tmasdan, noqonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirganligidan qo'rqib bular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi.

Odam savdosi faqatgina O'zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto'g'ri bo'ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ko'plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini havotirga solmoqda. Eng achinarlisi, odam savdosi bog'liq jinoyatchilikning keng quloch yozishiga: aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlari - ishsiz yurgan fukarolar,

turmush hayotida ko'p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota – onasining e'tibori va qaramog'idan chetda qolgan voyaga yetmagan shaxslarning go'yoki ularning muommolarini hal qilgan kabi ko'rinib, o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanayotganligi.

Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, odam savdosiga qarshi kurash borasida aholining turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush-hayotimizga soladigan xavfi va salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya'ni, aholining gavjum joylarida, mahallalarda, turli xil ta'lim muassasalarida, davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi; . T_2023
2. "Ichki Ishlar Organlari to'g'risidagi qonuni" 2016-yil 16-sentabr O'RQ 407-son qonuni.
3. "Hhuquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yil 14-maydagi O'RQ 371-sonli qonuni.
4. "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.11.2009 yildagi 12-son.
5. "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.08.2020 yildagi O'RQ-633-son.
6. www.lex.uz Elektron huquqiy hujjatlar to'plami.